# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
# BOG‘OT TUMANI HOKIMINING
# QARORI

**Bog‘ot shaharchasi, O‘zbekiston ko‘chasi, 18-uy**

**2021 -yil 22 - апрел** **846и -son** **Bog‘ot shaharchasi**

Боғот тумани ҳокимининг 2020 йил 3 сентябрдаги 1930қ-сонли қарорига ўзгартириш ва қўшимча киритиш тўғрисида

Боғот туман “IBROXIM M ELITA HOUSE” МЧЖга қарашли “Ашхобод” маҳалласи ҳудудида жойлашган “Ашхобод” маҳалла фуқаролар йиғини биносини қуриш эвазига берилган ер майдонини ажратиш тўғрисидаги туман ҳокимининг 2020 йил 3 сентябрдаги 1930қ-сонли қарорига тегишли ўзгартириш киритиб берилишини сўраб туман ҳокимлигига йўллаган 2021 йил февраль ойидаги сўровномасини кўриб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонуннинг 6, 25-моддаларига асосланиб,

**Қ А Р О Р  Қ И Л А М А Н:**

1. Боғот тумани ҳокимининг 2020 йил 3 сентябрдаги 1930қ-сонли қарорининг иккинчи ва учинчи бандларига қуйидагича ўзгартириш киритилсин;

- ушбу қарордаги “Ашхобод маҳалласи ҳудудидан” сўзлари “Пахтаобод маҳалласи ҳудудидан” деб, иккинчи ва учинчи бандидаги “2100 квадрат метр” сўзлари “3500 квадрат метр ер майдони “Дон маҳсулотларини қайта ишлаш заводи””” қуриш учун деб ўқилсин.

2. Боғот тумани ҳокимининг 2020 йил 3 сентябрдаги 1930қ-сонли қарорнинг бошқа бандлари ўзгаришсиз қолдирилсин.

3. Туман ҳокимлиги умумий бўлими (Х.Болтаев)га мазкур қарорнинг нусхаларини тегишли ташкилотларга ва “IBROXIM M ELITA HOUSE” МЧЖ (А.Матяқубов)га етказилишини таъминлаш ҳамда ушбу қарор қабул қилиниши муносабати билан туман ҳокимининг 2020 йил сентябрь ойида қабул қилинган қарорлар тўпламига белгиланган тартибда тегишли ўзгартириш киритиш вазифаси топширилсин.

4. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш туман ҳокимининг ўринбосари А.Курьязов зиммасига юклатилсин.

**Боғот тумани ҳокими** **Ш.Яхшибаев**